



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

OLAM MIFOLOGIK MANZARASINI GAVDALANTIRUVCHI UNSURLAR

Kdırbaeva G.K.

*Nukus davlat pedagogika instituti
ijtimoiy gumanitar fanlarni
masofadan o'qitish kafedrası, Ph.D.,
dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada olam mifologik manzarasining markaziy tushunchasi bo'lgan miflar, mifologemalar yordamida mifologik manzaraning shakllanishi, lisoniy ong shakllantirishda olam mifologik manzarasi va konseptosfera birliklarining mohiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mif, mifologema, olam mifologik manzarasi, konseptosfera, mifologik konsept, arxetip, diskursiv yondashuv

Inson uchun olam manzarasidagi narsa va hodisalarning tabiiy tasvirlanishidan implisit shaklga o'tish jarayoni qadim davrlardan murakkab masala bo'lib kelmoqda, chunonchi til va madaniyat tamoyillari albatta lisoniy ong shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi. Noreal olam asrlar mobaynida bir qancha o'zgarishlarga uchradi, zero tushunarsiz, g'ayritabiiy hodisa va narsalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish jamiyat rivojida dolzarbligini yo'qotmadi, jumladan ular din, mafkura va madaniyat kabi inson hayotidagi asosiy jihatlarning muayyan bir tarkibiy qismi sifatida qolmoqda.

Kognitiv tilshunoslik vakillari olamning lisoniy manzarasida namoyon bo'ladigan kontseptual tizim jismoniy va madaniy tajribaga bevosita bog'liqligini haqli ta'kidlaydilar. "Olam lisoniy manzara" atamasi metaforadan boshqa narsa emas deb fikr bildiradi V.A.Maslova, chunki etnos vakillarining ijtimoiy-tarixiy tajribasi aks etgan milliy tilning o'ziga xos xususiyatlari ma'lum bir jamoaning so'zlovchilari uchun yaratiladi.

Kognitiv tilshunoslik uchun olam haqidagi bilimning shakllanishida tilning hissasi muhimdir. Bu yo'nalishni tanlagan tadqiqotchi tilni voqelik, dunyoni bilish vositasi sifatida qabul qilib, ma'noni, uning hosil bo'lishi va rivoji tahlilini birinchi o'ringa qo'yadi deb ta'kidlaydilar Sh.S. Safarov. Kontseptual ramzlashgan shakllar zamirida voqelikni muayyan etnosning kundalik hayot tarzi va madaniyatiga mos holda idrok qilish, ya'ni muayyan lisoniy madaniyatning o'ziga xos belgisini o'rganish lingvomadaniyatshunoslik fani uchun muhim ahamiyatga ega.

Konseptosfera atamasi asosan qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim sanaladi, chunki bu yo'nalishdagi tahlilda konseptosferaning milliy xususiyatlari asosiy ob'ekt sifatida olinadi, bular esa har bir til sathida turlicha berilishi bilan izohlanadi. Bunda so'z, so'z ma'nosi, shu ma'nolarning konseptlari o'z holicha emas, aksincha, insonning



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

“fikrlar qatlam”ida muayyan bir shaklda paydo bo‘ladi. D.S. Lixachev, *konseptosfera* – bu alohida shaxsning lug‘at boyligida xuddi tildagi singari ochiladigan imkoniyatlarning barchasidir, deb ta’riflaydi.

Jumladan, olamning mifologik manzarasini yaratuvchi elementlar miflarning konseptuallashuvini va aqliy dunyoqarashini tushunishga yordam beradigan unsurlar hisoblanadi. Mif olam mifologik manzarasining markaziy tushunchasi bo‘lganligi sabab, mifologemalar yordamida mifologik manzara shakllanadi, deb xulosa qiladi S.V.Lazarev.

“Mifologema” atamasiga olimlar tomonidan hilma-hil ta’riflar berilgan bo‘lib, ular quyidagicha: 1) mifologik tizimning mustaqil semantikaga ega bo‘lgan, olamning mifologik manzarasini so‘z bilan ifodalovchi birlik (semantik-funksional parametrlar ta’rifi); 2) sakral birlik (lingvofolkloristika va matnshunoslikka oid asarlarda qo‘llaniladigan madaniyat bilan bog‘liqlikni aks ettiruvchi); 3) kognitiv ongni verballashtiruvchi kognitiv birlik (zamonaviy kognitiv fanga xos xususiyat); 4) arxaik birlik (madaniyatshunoslik va etnologik tadqiqot paradigmasi xarakteristikasi); 5) ramziy belgiga ega lisoniy birlik (semiotik nuqtayi nazardan). Mazkur ta’riflarni umumlashtirib, “**Mifologema** - mifologik tafakkur birligi, mifologik yaxlitlikka ega bo‘lgan obraz, muayyan xususiyatlarning barqaror majmuini o‘z ichiga olgan tasvir (mifologik syujet, motiv, irratsional hodisa, irratsional ob’ekt, irratsional qahramon)”, deb xulosa qilamiz.

S.A. Kosharnaya mifologik konsept “mifokonsept” atamasiga murojaat qiladi va uni olam mifologik manzarasi tarkibini yaratuvchi element sifatida tavsiflaydi. Mifologik konseptning o‘ziga xosligi uning mifologik tabiati bilan ifodalanadi, ya’ni uning fikricha, mifologik konseptlar “arxeologik” manba sifatida ifodalanadi, va ularsiz etnosning qadimgi kognitiv paradigmasining semantik qayta qurilishi to‘liq bo‘lmasligi mumkin.

Shunday qilib, mifning lisoniy, ijtimoiy, tarixiy-falsafiy tahlili olamning mifologik manzarasining yetakchi tarkibiy qismi, uning kontseptual va uslubiy modeli sifatida rivojlangan, u butun bir metodologik usullarni o‘z ichiga oladi, mif va olamning mifologik manzarasini o‘rganish metodologiyasining fundamental asosi hisoblanadi.

Mif – olam yaratilishi; Mifologema – Tangri Erkek, Umay ana; arxetip – ota-ona; mifologik kontseptosfera birliklari – ota-ona, soch, daraht, oltin, sehr, yordam.

Albatta mifologemani ayri holda, lisoniy birlik sifatida o‘rganish noto‘g‘ri, chunonchi, mifologemaning matndagi xarakteri, xususiyatlari, mazmuni boshqa



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

mifologemalar va uning arxetipik obrazlari bilan to‘liq mazmun mohiyatga ega bo‘ladi.

Til va nutqni diskursiv yondashuv nazdida tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ular ma‘lum bir ma‘noda til haqidagi umumiy bilimlarni ilmiy tendentsiyalar nazdida tanishtiradi va izohlaydi.

Konseptning kognitiv qatlamida, umumiy bir xususiyatlar jamlangan muayyan kognitiv tasnif asosida taqsimlanadi. Jumladan, binar komponentlar (Peri-Albastı, qara tochki-kamera), dispozitsion komponent (mástan kempir-qıyınshılıqqa ushrag‘an, dipressiyadag‘ı “hayal”) assertiv komponent (qız-hayal-kempir) va boshqa komponentlar qatlamlarni to‘ldirib boradi.

Demak, o‘rganilgan konseptlarning makrotuzilmasi va mazmuni lingvomadaniy konseptlar bilan milliy konseptlarning o‘rtasidagi o‘xshashlikning yuqori darajada ekanligi dalillandi, jumladan, lingvomadaniy kontseptosferalar mifologik kontseptosferalarni tashkil etuvchi konseptlardan tarkib topishi aniqlandi.

Shunday qilib, lisoniy ong shakllantirishda olam mifologik manzarasi va kontseptosfera birliklarining mohiyati katta. Ulardan har bir tadqiq qilinayotgan madaniyat va tilning olam lisoniy milliy manzaralarini shakllantirishda tadrijiy foydalanilgan. Xalqlarning ijtimoiy ongi har – bir davr va ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar doirasida mifologik obrazlar va syujetlar qo‘llanishi har xil maqomda gavdalangan, ayniqsa timsol maqomida faol foydalanilgan. Mifologik kontseptosfera birliklari vositasida milliy muammolar g‘oyasi shakllanadi, tarix va millat muammolarini idrok etishga yordam beradi. Milliy g‘oya va umuminsoniy falsafani o‘zida mujassam etgan mifologik kontseptosfera birliklari yangi ijtimoiy-falsafiy konsepsiya ishlab chiqishda asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov Sh. Tilshunoslikning navbatdagi vazifalari// Xorijiy filologiya. Samarqand: SamDCHTI, 2016. – №3. 98-105 b.
2. Kдырбайева G. K. MIFOLOGIK ARXETIP ARXAIK TAFAKKUR RELIKTI // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mifologik-arhetip-arhaik-tafakkur-relikti> (data obrasheniya: 16.03.2024).
3. Kosharnaya S.A. Lingvokulturologicheskaya rekonstruktsiya mifologicheskogo kompleksa “chelovek – priroda” v russkoy yazыkovoy kartine mira: avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk: - Belgorod: 2002. - 46 s.
4. Lazarev M.A. Mifologicheskaya kartina mira//Humanity space International almanac Vol.6, No.2, 2017: 269-282.